

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

FOZILOV SHERZOD MUSURMONOVICH

**SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA SOYA NAVLARINING
BIOEKOFIZIOLOGIYASI VA YETISHTIRISH ASOSLARI**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Fozilov Sherzod Musurmonovich

Surxondaryo viloyati sharoitida soya navlarining bioekofiziologiyasi va yetishtirish asoslari 3

Фозиллов Шерзод Мусурмонович

Биоэкофизиология и основы выращивания сортов сои в условиях Сурхандарьинской области 21

Fozilov Sherzod Musurmonovich

Bioecophysiology and basics of growing soybean varieties in the conditions of Surkhandarya region..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

FOZILOV SHERZOD MUSURMONOVICH

**SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA SOYA NAVLARINING
BIOEKOFIZIOLOGIYASI VA YETISHTIRISH ASOSLARI**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/B607 raqamida ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolliyev Askar Ergashovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

O'roqov Sirojiddin Xudoyberdiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Xalilov Nasriddin
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019.B.72.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "06" 04 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12, e-mail: bsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№2697 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Buxoro davlat universiteti majlislar zali Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "20" 03 kuni tarqatildi.

(2024-yil "20" 03 dagi №2 raqamli reestr bayonnomasi)



X.T. Artikova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

A.M. Qobilov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
koti, biologiya fanlari falsafa doktori
(PhD) dotsent

S.S. Murodova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar rais o'rinbosari,
biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo aholi sonining jadal ko‘payishi ularning global oziq-ovqatga bo‘lgan talabining oshishiga olib kelmoqda. Kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishlari hamda yerdan unumli foydalanishning bugungi holati oziq-ovqat xavfsizligi uchun katta muammo hisoblanadi. Bunday sharoitda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat ishlab chiqarish 70 foizga o‘sishi kerak, bunga ekin maydoni hududlarini kengaytirish emas, balki hosildorlik darajasini oshirish orqali erishish mumkin. Bu kabi muammolarni ilmiy asoslashga katta e‘tibor berilib, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga eng muhim ustuvor vazifalarning yechimi sifatida qaralmoqda. Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida sifatli va kam xarajatli, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda global iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan abiotik omillar qishloq xo‘jaligi o‘simliklari jumladan, soya yetishtirish tizimlariga salbiy ta‘siri, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, suv tanqisligi va qurg‘oqchilik sharoitida o‘simliklar morfologiyasi, fiziologiyasi va biokimyosidagi o‘zgarishlar mexanizmini o‘rganish va ochib berish nazariy va ilmiy muammolardan biri bo‘lib, bunday sharoitda esa ularning o‘sishi, rivojlanishi, morfoxo‘jalik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari hamda fiziologik jarayonlarning faollashish mexanizmiga ijobiy ta‘sir etuvchi biofiziologik moddalarni ishlatish hisobiga hujayra, to‘qima, organ va genotip darajasidagi moslashuvchanlik samaradorligini oshirishga katta e‘tibor berilmoqda.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida soyani asosiy ekin hamda takroriy ekin sifatida ekish, yetishtirish bo‘yicha ekofiziologik va agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish hamda shu orqali aholini sifatli moy va oqsil bilan ta‘minlash, suv tanqis sharoitda stress omillarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini aniqlash, yaratish va amaliyotga joriy etish, chorvachilik hamda parrandachilikni to‘yimli ozuqa bilan ta‘minlash imkoniyati yaratiladi. Bu borada, jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “... ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” bo‘yicha alohida vazifalar belgilangan. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan soya o‘simligi don hosildorligini oshirish bilan bog‘liq holda, cheklangan namlik omillariga chidamli navlarni tanlash va ularni yetishtirishda o‘simliklarning fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “2017-2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2832-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi”gi PF-60-son Qarori.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-fevraldagi 105-son “Respublikada soya yetishtirish hajmlarini yanada ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijda soya o‘simliklari biologiyasi, fiziologiyasi va biokimyosi hamda yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada xorijlik olimlar tomonidan soyaning fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari A. Lobato (2008), H. Masoumi (2010), Jiang Liu (2017), G. Felisberto (2023), suv taqchilligi sharoitida hosildorlik ko‘rsatkichlarini Y.T. Galganov (1991), R.E. Brededan (2003), Sh. Demirtash (2010), N. Komlekchio‘g‘lu (2011), C.Vijevardana (2018), suv taqchilligi sharoitida suv almashinuv xususiyatlari M.L. Burle (1990), L.L. Ries (2012), Mariola Staniak (2023) va boshqalarning ilmiy manbalarida keltirilgan.

MDH mamlakatlarida soya o‘simligining bioekologik xususiyatlarini A.M. Magomedov (2002), N.B.Salnikova (2019), M.E.Belishkina (2022), turli namlik muhit omillarining ta’siri A.G. Jixarev (2009), Ye.V. Ushakova (2014), O.M. Agafonov (2018), R.G. Gornostal (2020) va boshqalarning ishlarida keltirilgan.

Respublikamizning turli mintaqalarida soya navlarining bioekologik xususiyatlari va don mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bo‘yicha D. Yormatova (1991, 2014), D. Annamuratova (2010), M.Mannapova (2017-2018), M.K. Xamroyeva (2020), B.X. Kuldashov (2021), Z.M. Kushmetov (2021) M.Sh. Jaynaqov (2021), H.H. Matniyazova (2022), D.V. Soliyeva (2022), N.F. Mirzayev (2022), O‘.X. Yuldashov (2023) va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, soya navlarining turli suv rejimida, jumladan, tuproqning cheklangan namlik sharoitida bioekofiziologik va yetishtirish xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Istiqbolli noan’anaviy o‘simliklar introduksiyasi hamda fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari” mavzusidagi amaliy loyiha rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mo‘tadil va cheklangan tuproq namligi sharoitida istiqbolli xorijiy va mahalliy soya navlarining bioekofiziologiyasi, hosildorligiga uni yetishtirish sharoitlarining ta’sirini asoslash va soha yo‘nalishiga ilmiy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

barg hujayra shirasi konsentratsiyasiga ko'ra soya o'simligini optimal sug'orish rejimini (ishlab chiqish) aniqlash;

mo'tadil va cheklangan tuproq namligi sharoitida turli soya navlarining suv almashinuvi jarayonining asosiy ko'rsatkichlari (umumiy suv miqdori, transpiratsiya jadalligi, suv saqlash xususiyati, suv tanqisligi) ni asoslash;

mo'tadil va cheklangan tuproq namligi sharoitida turli soya navlarining fotosintetik ko'rsatkichlari (barg sathi, pigmentlar miqdori, fotosintez jadalligi, fotosintez sof mahsuldorligi) ni aniqlash;

cheklangan namlik (suv stressi) ning urug' sifati ko'rsatkichlariga, jumladan, oqsil va moy miqdoriga ta'sirini baholash.

soya navlari kesimida yuqori don hosildorligini ta'minlaydigan tuproq namlik darajasini aniqlash;

turli soya navlarining bioekofiziologik xususiyatlarini va ontogenez davrlari muddatlarini qiyosiy o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida soya (*Glycine max L.*) ning mahalliy "Baraka", "To'maris MAN-60", "Ustoz MM-60" va xorijiy "Vilana" (Rossiya) navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti istiqbolli soya navlarining biokimyosi, yetishtirish asoslari, bioekofiziologik va hosildorlik ko'rsatkichlari, hosil va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan navlarni tanlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida laboratoriya va dala tajribalari, morfologik, fenologik, fiziologik, biokimyoviy, kuzatish va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyatining mo'tadil (uchinchi barg hosil bo'lishi, shoxlanishi va g'unchalash davrlarida - 70 %, gullash va dukkaklar hosil bo'lish davrida - 80 %, urug' to'lishish davrida - 70 %) va cheklangan (uchinchi barg hosil bo'lishi, shoxlanishi va g'unchalash davrlarida - 50 %, gullash va dukkaklar hosil bo'lish davrida - 60 %, urug' to'lishish davrida - 50 %) tuproq namligi sharoitida soya yetishtirish asoslangan;

soya navlarining o'sishi, rivojlanishi, don hosildorligi va urug'larining biokimyoviy tarkibiga turli namlik darajalari ta'siri va o'simliklarning o'zgargan muhit sharoitida genotipning moslashish darajasi yuqori bo'lgan "Ustoz MM-60", hamda ta'sirchan "Vilana" navlari aniqlangan;

navlarning ayrim biofiziologik xususiyatlari - barglardagi hujayra shirasi konsentratsiyasi, transpiratsiya jadalligining kunlik dinamikasi, suvni saqlash darajasi, erkin va bog'langan suv miqdori, turgosentlik holati, suv tanqisligi, pigmentlar miqdori, fotosintez va nafas olish jadalligining bevosita namlik darajalari bilan bog'liqligi dala tajribalari sharoitida navlar kesimida baholangan;

cheklangan namlik sharoitida o'rganilgan mahalliy va xorijiy soya navlari barglarida bog'langan suv miqdori, suvni saqlash xususiyati, hujayra shirasi konsentratsiyasining oshishi soyaning Baraka va Ustoz MM60 navlarida, barglarning suv tanqisligi va nafas olish jadalligining oshishi esa To'maris MAN60 va Vilana navlarida aniqlangan;

har xil namlik sharoitlarida mahalliy va xorijiy soya navlarini yetishtirishda tuproqning namlik rejimini boshqarish orqali quruq massa va don hosildorligini oshirishning agrotexnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyati va unga yondosh hududlar sharoitida mahalliy va xorijiy soya navlarining tuproqdagi cheklangan namlik sharoitiga chidamlilik darajasi asosida, ularni joylashtirish va yuqori hosildorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

soya navlari kesimida yuqori don hosili olishni ta'minlaydigan namlik darajalari aniqlanib, navlar hosildorligini oshirishda Surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitiga mos hamda moslashish va mahsuldorlik darajasi yuqori bo'lgan navlarni ekish va ularni yetishtirishning agrotexnologik usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan laboratoriya va dala tajribalaridan olingan nazariy hamda amaliy natijalarning mahalliy va xorijiy tajribalar bilan qiyoslanganligi, natijalar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda dissertatsiya ishi natijalari O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda chop etilganligi, tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli soya navlarining Surxondaryo viloyati iqlim sharoitida bioekofiziologiyasi va yetishtirish asoslari o'rganilganligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlarining biofiziologik jarayonlarga bog'liqligining asoslanganligi, soyani yetishtirishda tuproqning namlik rejimini to'g'ri boshqarish orqali don hosilini oshirish mumkinligi, mo'tadil tuproq namligini ta'minlash orqali hosildorlikni navlar kesimida o'rtacha 22,8% ga oshirib, gektar hisobiga 29 sentnergacha soya donini olish imkoniyati hamda ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati cheklangan namlik sharoitiga chidamlilik darajasi va mahsuldorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan "Ustoz MM-60" va "Baraka" navlarini viloyatning yuqori harorat va garmsellar kuchi yuqori bo'lgan hududlariga ekib, yuqori va sifatli hosil olish imkoni bilan belgilanadi. Tavsiyalarni amaliyotga joriy etish suv taqchilligi mavjud hududlarda soyani yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo viloyati sharoitida soya navlarining bioekofiziologiyasi va yetishtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

soya yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari xodimlari uchun amaliy qo'llanma sifatida yaratilgan Surxondaryo viloyati optimal namlik va qurg'oqchil yerlarida soya o'simligini yetishtirish hamda navlarni tanlash texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma Surxondaryo viloyati fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan viloyat hududidagi fermer xo'jaliklarida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashining 2023 yil 11 iyuldagi 01/04-1236-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, namlik stressining salbiy ta'siri kuzatiladigan maydonlarga mos navlarni tanlash,

optimal namlik darajalariga amal qilgan holda soya navlarini sug'orish va cheklangan namlikka moslashish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan navlarni ekish evaziga navlar kesimida yuqori mahsuldorlikka hamda tuproq unumdorligini oshirishga imkon yaratgan;

soya navlari ontogenezida barglardagi hujayra shirasi konsentratsiyasi (HShK), hujayralarning turgotsentlik darajasi (HTD) ko'rsatkichlarini aniqlash orqali navlarning tuproq namlik muhitiga chidamlilik darajasini aniqlash usullari va shu orqali sug'orishni tashkil etish texnologiyasi Surxondaryo viloyati sharoitida 8,5 gektar maydonda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 12 sentyabrdagi 07/34-05/4601-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat qishloq xo'jaligi yerlarining optimal va cheklangan namlik sharoitidagi tuproqlarida oddiy ekin maydonlarini kengaytirish orqali emas, balki o'simlikdagi barglarning qarishini oldini olish, bo'g'im va shoxlar sonini oshirish hisobiga mahsuldorlikka ijobiy ta'sir o'tkazish orqali mahalliy hamda xorij soya navlarini yetishtirish va ekologik toza, tarkibida moy va protein miqdori yuqori bo'lgan hosil olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflanib, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya o'simligining bioekofiziologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi bayon etilgan. Xorijiy davlatlar, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bunda mavzu o'rganilishining hozirgi ahvoli, o'simliklarga stress omillarning ta'siri masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tizimlashtirilgan va nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'tkazilgan tadqiqotlarning hozirgi holati adabiyot manbalari kesimida solishtirma tahlili berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari, uslublari va sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari, tajribalarni o'tkazish joyi, tuproq va

iqlim sharoitlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanilgan uslublar bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlari bioekofiziologik xususiyatlariga namlik darajalarining ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida abiotik omillar ta'sirida o'rganilgan navlarda transpiratsiya jadalligi, barglardagi suv miqdori, fotosintez jadalligining bevosita suv tanqisligiga bog'liqligi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, barglarning kunduzgi suv tanqisligi, nafas olish jadalligi, hujayralarning turgosentlik darajasi, xlorofill pigmentlari miqdori, protoplazmaning qovushqoqligiga cheklangan va mo'tadil namlik ta'sirini baholash bo'yicha olingan ma'lumotlar hamda ularning tahlili va bobga doir xulosalar keltirilgan.

Olib borilgan tajriba ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, urug'larning unib chiqish davrining dastlabki birinchi haftasida ildizning o'sish jadalligi poyaga nisbatan faol kechib, bunda ildizlarning o'sish jadalligi o'rtacha 1,18 sm/kun, poyalarning o'sishi jadalligi esa 0,8 sm/kun darajasida bo'ldi. Dastlabki ikki hafta davomida esa soya ko'chatlarida dastlabki chiziqli ildiz o'sishining jadalligi o'rtacha 1,6 sm/kun darajasida ekanligi qayd etildi. Poyaning o'sishi bo'yicha esa bu ko'rsatkich o'rtacha 1,8 sm/kunni tashkil etdi. Niholning uchinchi haftasida ildizlarning o'sish jadalligi birinchi haftadagiga nisbatan 2,3 barobarga kam bo'lganligi aniqlandi (1-jadval).


1-jadval

Soya navlari ildiz va poyasining o'sish jadalligi, sm

Navlar Kunlar	Baraka		To'maris MAN-60		Ustoz MM-60		Vilana	
	Ildiz	Poya	Ildiz	Poya	Ildiz	Poya	Ildiz	Poya
7-kun	8,1± 0,1	4,8± 0,1	8,5± 0,2	5,8± 0,2	9,1± 0,2	7,0± 0,3	7,2± 0,1	4,5± 0,1
14-kun	22,3± 0,7	29,9± 0,4	22,5± 0,7	25,0± 0,6	23,2± 0,8	28,0± 0,7	21,4± 0,3	23,1± 0,5
21-kun	24,5± 0,8	31,3± 0,5	25,4± 0,8	32,5± 0,9	26,2± 0,7	33,0± 0,8	25,3± 0,8	30,5± 0,4


Soya ko'chatlari ildizi va uning chiziqli o'sishining bunday dinamikasi urug'lar tarkibidagi ozuqa moddalar miqdorining sezilarli darajada kamayishi, ularning normal o'sish va rivojlanish uchun zahira moddalar yetarli bo'lmasligi bilan ham izohlanadi.

Shu bilan birga, ushbu navlar ildiz quruq massasining yig'ish jadalligi navlar kesimida o'rganildi. Eng jadal rivojlanish ko'rsatkichi 7,14,21 - kunlarda Ustoz MM-60 navida, eng past ko'rsatkich esa Vilana navida kuzatildi. Ya'ni, mos ravishda ikkala nav kesimida quruq massa miqdori Ustoz MM-60 navida 0,17±0,72, 0,53±0,62 va 0,81±0,52 hamda Vilana navida 0,14±0,23, 0,51±0,51 va 0,63±0,45 grammga yetdi. Boshqa o'rganilgan navlar bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinni egalladi (1-rasm).



1-rasm. Soya ildizining quruq massa to'plash jadalligi, g

Poya quruq massaning to'planish jadalligi bo'yicha olingan ma'lumotlarga qaraganda, urug'lar unib chiqqandan keyingi 7, 14 va 21-kunlarda bu ko'rsatkichning eng yuqori qiymati Ustoz MM-60 navida kuzatilib, o'rtacha qiymat mos ravishda - $0,23 \pm 0,22$, $0,59 \pm 0,20$, va $0,77 \pm 0,19$ gramm, eng past ko'rsatkich esa Vilana navida - $0,21 \pm 0,31$, $0,55 \pm 0,21$ va $0,74 \pm 0,18$ gramm darajasi qayd etildi (2-rasm).



2-rasm. Soya poyasining quruq massa to'plash jadalligi, g

Soya navlari barglarining transpiratsiya jadalligi vegetatsiya davriga, kun davomida havo haroratiga va tuproq namligiga bog'liqligi aniqlandi. Mo'tadil namlik sharoitidagi o'simlik cheklangan namlik sharoitida o'sgan o'simlikka nisbatan gullash bosqichida transpiratsiya jadalligining kunlik dinamikasiga ko'ra o'rtacha 10% dan 19% oraliq'ida yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Transpiratsiya jadalligi suv tanqisligiga chidamli bo'lgan navlarda chidamsizlarnikiga qaraganda yuqoriligi qayd etildi. O'simliklarning suv bilan ta'minlash darajasining oshishi transpiratsiya orqali suvning sarflanishini oshishiga sabab bo'ldi va tuproqdagi suv tanqisligi o'simliklarda transpiratsiya jadalligini pasaytirdi. Mo'tadil namlik sharoitidagi o'simliklarda cheklangan namlikda yetishtirilgan navlarga qaraganda transpiratsiya jadalligi yuqori bo'lishi kuzatildi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'simliklar rivojlanishning gullash davrida barglarining transpiratsiya jadalligi Ustoz MM-60 navida keskin oshishi, To'maris

MAN-60 navida esa nisbatan past ekanligi kuzatildi. Ya'ni, gullash bosqichida bu ko'rsatkichlarning qiymati mo'tadil namlik sharoitida Ustoz MM-60 navi barglarining 1 m² sathida 1 soat davomida 145,38±1,8 g suv bug'latilgan bo'lsa, shu muddatda To'maris MAN-60 navining barglaridan 124,71±1,7 g suv bug'langanligi aniqlandi (2- jadval).

2-jadval

Soya navlari gullash fazasida transpiratsiya jadalligining kunlik dinamikasi, g/m² soat

№	Soat	8:00	10:00	12:00	14:00	16:00	18:00	20:00	O'rta-cha
	Havo harorati	26 °C	32 °C	34 °C	36 °C	37 °C	36 °C	30 °C	33°C
	Havo namligi	27%	20%	14%	10%	9%	14%	17%	16%
Mo'tadil namlik (70-80-70%)									
1	Baraka	88,5 ±1,8	120,5 ±1,3	143,4 ±1,7	168,4± 1,9	181,6± 2,3	130,7 ±1,5	118,4 ±1,4	135,92 ±1,8
2	To'maris MAN-60	58,6 ±1,5	110,6 ±0,8	135,8 ±1,6	156,5± 2,1	174,8± 2,4	128,2 ±2,4	108,5 ±1,2	124,71 ±1,7
3	Ustoz MM-60	86,4 ±1,7	125,4 ±1,4	168,9 ±0,9	177,3± 2,5	197,4± 1,9	136,5 ±1,6	125,8 ±2,6	145,38 ±1,8
4	Vilana	82,6 ±1,4	114,3 ±1,2	140,6 ±1,7	162,6± 1,8	189,3± 1,8	126,2 ±2,3	115,2 ±1,3	132,97 ±1,6
Cheklangan namlik (50-60-50%)									
1	Baraka	78,6 ±1,7	105,4 ±0,3	126±2 ,2	147,5± 0,9	159,4± 1,4	113,6 ±1,0	105,5 ±1,6	119,42 ±1,3
2	To'maris MAN-60	54,8 ±1,6	93,5± 1,1	116,2 ±2,1	134,8± 2,1	151,3± 2,4	109,3 ±1,6	91,6± 1,5	107,36 ±1,7
3	Ustoz MM-60	77,7 ±1,4	112,8 ±1,4	152±0 ,8	159,6± 0,9	177,6± 1,4	122,5 ±2,1	113,2 ±1,8	130,8 ±1,4
4	Vilana	63,3 ±1,3	90,8± 1,0	116,5 ±1,1	134,3± 1,0	159,2± 1,5	102,5 ±1,1	91,6± 0,9	108,6 ±1,1

Qolgan navlar oraliq o'rinlarni egallab, Baraka navi nisbatan kamroq suv bug'latdi, ya'ni 135,92±1,8 g, Vilana navi esa 132,97±1,6 g suv bug'latishi kuzatildi. Transpiratsiya jadalligi bo'yicha navlarning bir-biridan keskin farq qilishi qayd etildi.

Cheklangan namlik sharoitida ushbu ko'rsatkichlarning qiymati mos ravishda Ustoz MM-60 navi barglarining 1 m² barg sathida 1 soat davomida 130,8±1,4 g suv bug'latilgan bo'lsa, shu muddatda To'maris MAN-60 navining barglaridan 107,36±1,7 g suv bug'langan. Qolgan navlar oraliq o'rinlarni egallagan, ya'ni Baraka navi 119,42±1,3 g, Vilana navi 108,6±1,1 g suv bug'latganligi aniqlandi. Amalga oshirilgan izlanishlar natijasiga qaraganda, soya navlari barglarining transpiratsiya jadalligi asosan, tuproqdagi namlik sharoitiga, o'simlikdagi barglarning joylashishiga, kunning vaqtiga, haroratning oshishi va nisbiy namlik darajasiga bevosita bog'liq bo'ldi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan soya

navlari barglarining suvni saqlash xususiyati tuproq namlik darajalariga bog‘liq holda har xil bo‘lishi kuzatildi. Jumladan, Vilana navida mo‘tadil namlik sharoitida suvni saqlash xususiyati 59,8% bo‘lganda, cheklangan namlik sharoitida 30,1% ni tashkil etdi va mazkur navning suv tanqis sharoitga tasirchanligini bildiradi. Eng kam ta’sirchanlik esa Ustoz MM-60 navida kuzatildi va uning kamayish qiymati 18,2% ni tashkil etdi.

Mo‘tadil namlik sharoitida suv saqlash xususiyatining eng yuqori ko‘rsatkichi Ustoz MM-60 navining chinbarg fazasida kuzatildi, bu $65,8 \pm 0,25$ % bo‘ldi va eng past ko‘rsatkich esa Vilana navining dukkaklash fazasida kuzatilib, uning qiymati $57,1 \pm 0,61$ % bo‘ldi. Cheklangan namlik sharoitida esa eng yuqori ko‘rsatkich Ustoz MM-60 navining chinbarg fazasida aniqlandi, uning qiymati $48,6 \pm 0,79$ % ni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich ham mo‘tadil namlik sharoitida bo‘lgani kabi Vilana navining dukkaklash fazasida kuzatilgan, bu esa $26,7 \pm 0,62$ % ga yetdi (3-jadval).

3-jadval

Turli soya navlari barglarining suv saqlash xususiyati, %

Soya navlari	Aniqlangan faza				O‘rtacha
	Chinbarg	Shonalash	Gullash	Dukkaklash	
Mo‘tadil namlik (70-80-70 %)					
Baraka	$63,9 \pm 0,72$	$62,4 \pm 0,58$	$59,9 \pm 0,46$	$58,6 \pm 0,44$	61,2
To‘maris MAN-60	$64,8 \pm 0,86$	$61,5 \pm 0,47$	$63,2 \pm 0,66$	$60,1 \pm 0,67$	63,7
Ustoz MM-60	$65,8 \pm 0,25$	$64,4 \pm 0,76$	$62,3 \pm 0,52$	$59,7 \pm 0,43$	63,1
Vilana	$61,8 \pm 0,68$	$60,7 \pm 0,33$	$59,4 \pm 0,48$	$57,1 \pm 0,61$	59,8
Cheklangan namlik (50-60-50%)					
Baraka	$43,4 \pm 0,82$	$41,8 \pm 0,76$	$38,4 \pm 0,64$	$37,7 \pm 0,64$	40,3
To‘maris MAN-60	$41,3 \pm 0,84$	$40,2 \pm 0,77$	$40,5 \pm 0,65$	$36,6 \pm 0,66$	39,7
Ustoz MM-60	$48,6 \pm 0,79$	$45,3 \pm 0,75$	$43,7 \pm 0,66$	$42,3 \pm 0,64$	44,9
Vilana	$33,7 \pm 0,72$	$30,6 \pm 0,74$	$29,4 \pm 0,62$	$26,7 \pm 0,62$	30,1

Hujayra shirasining konsentratsiyasi o‘simliklarning suv ta’minotini belgilaydigan mezonlardan biri hisoblanadi. Soya o‘simligi sug‘orish rejimining mo‘tadil variantida hujayra shirasining konsentratsiyasi navlar kesimida chinbarg fazasida $9,75 \pm 0,2$ - $12,2 \pm 0,1$ % (o‘rtacha 10,8%), shonalash fazasida $12,5 \pm 0,2$ - $15,4 \pm 0,5$ % (o‘rtacha 14,4%), gullashning dastlabki kunlarida $13,4 \pm 0,7$ - $16,6 \pm 0,4$ % (o‘rtacha 14,7%), yalpi gullash bosqichida $14,4 \pm 0,3$ - $17,6 \pm 0,4$ % (o‘rtacha 16,2%), dukkaklash fazasida $17,5 \pm 0,3$ - $19,5 \pm 0,5$ % (o‘rtacha 18,5%) bo‘lishi aniqlandi. Soya o‘simligi sug‘orish rejimining cheklangan variantida hujayra shirasining konsentratsiyasi navlar kesimida chinbarg fazasida $10,2 \pm 0,2$ - $13,7 \pm 0,4$ % (o‘rtacha 11,8%), shonalash fazasida - $14,1 \pm 0,4$ - $17,1 \pm 0,3$ % (o‘rtacha 15,5%), gullashning dastlabki kunlarida - $14,5 \pm 0,2$ - $18,6 \pm 0,8$ % (o‘rtacha 16,5%), yalpi gullash bosqichida $15,6 \pm 0,2$ - $19,9 \pm 0,6$ % (o‘rtacha 18,1%), dukkaklash fazasida $19,8 \pm 0,2$ - $21,4 \pm 0,6$ % (o‘rtacha 20,5%) bo‘ldi (4-jadval).

Soyaning rivojlanish bosqichlarida hujayra shirasi konsentratsiyasiga namlik darajalarining ta'siri, %

Navlar	Chinbarg	Shonalash	Dastlabki gullash	Yalpi gullash	Dukkaklash
Mo'tadil namlik (70-80-70%)					
Baraka	11,1±0,3	13,2±0,1	13,6±0,2	16,1±0,6	18,2±0,2
To'maris MAN-60	12,2±0,1	15,1±0,4	15,2±0,5	17,6±0,4	19,5±0,5
Ustoz MM-60	9,7±0,2	15,4±0,5	16,6±0,4	16,5±0,5	18,8±0,4
Vilana	10,2±0,4	12,5±0,2	13,4±0,7	14,4±0,3	17,5±0,3
Cheklangan namlik (50-60-50%)					
Baraka	12,1±0,3	14,1±0,4	14,5±0,2	19,9±0,6	20,3±0,7
To'maris MAN-60	13,7±0,4	17,1±0,3	18,6±0,8	18,4±0,3	19,8±0,2
Ustoz MM-60	10,2±0,2	16,3±0,5	17,5±0,3	18,5±0,4	21,4±0,6
Vilana	11,2±0,1	14,4±0,7	15,5±0,7	15,6±0,2	20,4±0,4


Soya o'simligi barglari tarkibidagi xlorofill miqdori mo'tadil namlik (nazorat) va cheklangan namlik (suv tanqis) sharoitida o'zgarishi navlarning biologik xususiyatlariga bog'liq holda har xil bo'lishi qayd etildi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, namlikning yetishmasligi soya navlarining barglaridagi pigmentlarining miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mo'tadil namlik sharoitida 45,51±0,15-37,28±0,22 oralig'ida bo'lgan bo'lsa, cheklangan namlik sharoitida esa bu ko'rsatkich 42,33±0,85-33,89±0,20 oralig'ida ekanligi qayd etildi (5-jadval).

Soya navlari bargidagi pigmentlar miqdori, spad

Soya navlari	Rivojlanish davrlari		
	Chinbarg	Gullash	Dukkaklash
Mo'tadil namlik (70-80-70%)			
Baraka	42,81±0,32	45,51±0,15	41,14±0,19
To'maris MAN-60	40,84±0,44	43,32±0,32	38,37±0,21
Ustoz MM-60	43,52±0,25	44,22±0,27	42,75±0,26
Vilana	39,61±0,18	39,98±0,23	37,28±0,22
Cheklangan namlik (50-60-50%)			
Baraka	39,91±0,35	42,33±0,85	37,10±0,75
To'maris MAN-60	37,98±0,12	39,85±0,51	34,81±0,35
Ustoz MM-60	41,17±0,18	38,47±0,15	39,83±0,87
Vilana	36,75±0,20	37,61±0,46	33,89±0,20


Barglarning fotosintez jadalligi qiymati bagrlarning yoshi va o'simlikdagi joylashuviga har tomonlama bog'liqdir. Xususan, soya navlarida asosan o'simliklarning yuqori yarusida joylashgan eng yosh va eng yoritilgan barglar fotosintezning eng yuqori jadalligiga ega ekanligi aniqlandi. Yalpi gullash fazasida fotosintez jadalligi yuqori yarusdagi barglarda pastki qismga nisbatan mos ravishda 2,5 va 2,0 baravar yuqoriligi aniqlandi. Ya'ni, yuqorigi yaruslarda fotosintez

jadalligi ko'rsatkichi $7,14 \pm 0,16$ dan $10,5 \pm 0,21$ $\text{mg/m}^2\text{soat}$ gacha, o'rta yarusda - $5,82 \pm 0,10$ dan $7,95 \pm 0,14$ $\text{mg/m}^2\text{soat}$ gacha, pastki yarusda esa - $3,21 \pm 0,10$ dan $4,28 \pm 0,12$ $\text{mg/m}^2\text{soat}$ gacha fotosintez jadalligi kuzatildi (3-rasm).



3-rasm. Soya navlarining gullash fazasida fotosintez jadalligi (yaruslar bo'yicha), $\text{mg/m}^2\text{soat}$

O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi davrida barglar nafas olish jadalligi dinamikasi o'zgaruvchanligi qayd etildi. Barglarning maksimal nafas olish jadalligi gullashning boshida va o'simliklarning dukkakash davrida qayd etildi. Gullashning oxiriga kelib barglarning nafas olish jadalligi sezilarli darajada kamaydi (deyarli ikki marta) va dukkakash davrida oshib, o'simlik o'sishining mavsum oxiriga kelib esa yana pasayishda davom etdi (4-rasm).



4-rasm. Mo'tadil namlik sharoitida soya navlarining nafas olish jadalligi, $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$

Soyaning Vilana navida nafas olish jadalligi eng yuqori bo'lib, chinbarg fazasida $16,6 \pm 0,52$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, shonalash fazasida $21,5 \pm 0,54$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, gullash fazasida $19,6 \pm 0,36$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, gullashning oxiriga kelib $13,4 \pm 0,26$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, dukkakash fazasida $20,2 \pm 0,54$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, dukkakashning oxiriga kelib nafas olish maksimal darajaga ko'tarilib, $22,6 \pm 0,49$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ ni tashkil etgan bo'lsa, pishish fazasida esa bu ko'rsatkich dukkakashning oxiridagidan bir yarim barobar past bo'lib $14,7 \pm 0,54$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ ni tashkil etdi.


Minimal nafas olish jadalligi Ustoz MM-60 navida kuzatilgan bo'lib, chinbarg fazasida $14,3 \pm 0,32$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ shonalash fazasida $17,3 \pm 0,52$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ gullash fazasida $15,3 \pm 0,34$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, gullashning oxiriga kelib $10,8 \pm 0,27$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ dukkakash fazasida $16,4 \pm 0,24$ $\text{mg CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$, dukkakashning oxiriga

kelib esa ushbu navda ham nafas olish maksimal darajaga ko‘tarilib, $18,1 \pm 0,21$ mg $\text{CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ bo‘ldi. Pishish fazasida esa bu ko‘rsatkich qiymati dukkaklashning oxiridagidan 1,6 barobar past bo‘lib, $11,6 \pm 0,22$ mg $\text{CO}_2/\text{g}\cdot\text{soat}$ ni tashkil etdi.

O‘shish davrining davomiyligi ekinlarning shakllanishi uchun sharoitlarni baholashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Soyaning vegetatsiya davridagi muhitning turli sharoitlari, yetishtirish texnologiyalari va navning biologik xususiyatlari fazalararo davrlarning davomiyligi va ularning o‘tish muddatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘simlik vegetatsiya davrida unib chiqishdan to pishib yetgunga qadar rivojlanishning sifat jihatidan turli bosqichlarini bosib o‘tadi. O‘shish va rivojlanish jarayonida soya o‘simliklari 9 ta fazadan o‘tadi, bu davrda sezilarli morfologik va biologik o‘zgarishlar ro‘y beradi: unib chiqish, maysa, birinchi uchtalik chinbarg barg, shoxlanish, g‘unchalash, gullash, dukkak hosil bo‘lishi, urug‘larni to‘ldirish va pishishi.

Tuproq namligining soya navlari vegetatsiya davri davomiyligiga sezilarli ta‘siri aniqlandi. Bunda cheklangan namlikda mo‘tadil namlikdagiga nisbatan navlar kesimida vegetatsiya davri 11-14 kunga qisqarganligi kuzatildi (5-rasm).



5-rasm. Soya navlari vegetatsiya davri davomiyligi, kunlar

Vegetatsiya davrining umumiy davomiyligi sug‘orish rejimlariga qarab mo‘tadil namlik sharoitiga 112 - 135, cheklangan namlik sharoitida esa 101-121 kungacha davom etadi.

Dissertatsiyaning “**Soya navlarining o‘shishi va mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga namlik darajalarining ta‘siri**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida navlarning o‘shish jadalligi, barg sathining kengayishi, fotosintez so‘f mahsuldorligi va navlarning hosil salmog‘iga cheklangan namlik stressining ta‘sirini baholash bo‘yicha tajribalar davomida olingan ilmiy natijalar va bobga doir ilmiy xulosalar keltirilgan.


Barglar yuzasining kengayishi tashqi omillar va xususan, tuproq namligi darajalariga bog‘liq holda navlar kesimida har xil bo‘ldi. Soya bargi yuzasining kengayishini kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, mo‘tadil namlik bilan ta‘minlash barg yuzasining o‘shish tezligiga sezilarli ta‘sir qildi. Bizning tadqiqotlarimizda ko‘ra, mo‘tadil muhitda o‘sgan o‘simlik barg yuzasi cheklangan namlikdagi o‘simlik barg yuzasiga nisbatan o‘rtacha 40% ga kam ekanligi aniqlandi (6-jadval).

Soya navlari barg yuzasining o'sishi, sm²/tup hisobida

Variant	Navlar	Rivojlanish fazalari		
		G'unchalash	Gullash	Dukkaklash
Mo'tadil namlik (70-80-70%)	Baraka	245±3,86	1700±5,62	3230±8,32
